



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Dantening “Ilohiy komediya” asari tahlili

Nurmatova Shoira Bahromjon qizi.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

shoiranurmatova28@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada italyan shoiri Dantening kech o'rta asrlar madaniyatining sintezi yoritilgan “Ilohiy komediya” asaridan ayrim parchalarning tahlili ko'rib chiqilgan. Asarda bosh qahramon Danteni qadimgi dunyo shoiri Vergiliy do'zax va arosatdan olib o'tishi va jannatga Beatriche olib kirishi tasvirlangan. Asar 3 qismdan iborat. Har bir qism 33 qo'shiqni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Vergiliy, Beatriche, do'zax, to'qqiz doira, jazo, arosat

Аннотация. В данной статье рассматривается анализ отдельных фрагментов произведения «Божественная комедия» итальянского поэта Данте, в котором освещается синтез культуры позднего Средневековья. В произведении описано, как главный герой Данте под руководством античного поэта Вергилия проходит через ад и чистилище, а в рай его вводит Беатриче. Произведение состоит из трёх частей. Каждая часть включает 33 песни.

Ключевые слова: Вергилий, Беатриче, ад, девять кругов, наказание, чистилище

Annotation. This article examines the analysis of selected passages from Dante's Divine Comedy, a work that reflects the cultural synthesis of the late Middle Ages. The narrative describes how the main character, Dante, is guided through Hell and Purgatory by the ancient poet Virgil, while Beatrice leads him into Paradise. The work consists of three parts, each containing 33 cantos.

Keywords: Virgil, Beatrice, hell, nine circles, punishment, purgatory

Kirish. Dante italyan adabiy tilining yaratuvchisi hisoblanadi. Uning asarlari oddiy xalq tili oliy tabaqa kishilari tiliga xos tantanavorlik, rangbaranglik va dramatism bilan uyg'unlashib ketgan. Dante o'z davridagi ijodkorlardan farqli o'laroq butun italyan millati nomidan gapirib, uning asriy orzu-armonlarini ifodalagan. Dante asarlari jahon xalqlarining ko'pgina tillariga tarjima qilingan. „Ilohiy komediya“ dostonining “Do'zax” qismi o'zbek tilida Abdulla Oripov tarjimasida nashr etilgan.

Aslida doston 3 qismdan iborat bo'lib ular: “Do'zax”, “A'rof” va “Jannat” dan iborat. Har bir qismda 33 qo'shiq mavjud. Doston Dantening shoir Vergiliy boshchiligida narigi dunyoga sayohati tarzida yozilgan.

Asosiy qism. Dante qorong'u va zulmat o'rmonda tun bo'yi adashib, tongga yaqin u yerdan bir amallab chiqib oladi va yuksak tepalikka ko'tarila boshlaydi. Ammo uning yo'lini qoplon, arslon va qashqir to'sib, qaytadan o'rmonga qisib bora boshlaydi. Shunda shoirning ro'parasida qadimgi dunyo





shoiri Vergiliy paydo bo'ladi va taskin so'zlar aytadi. Uni Do'zax va Arosatdan omon-eson olib o'tajagini, Jannatga esa Beatriche olib kirajagini bildiradi. Shunday qilib, Dante Vergiliyning izidan ketadi.[1]

Taxminiy ma'lumotlarga qaraganda, Beatriche Dantening sevgan qizi hisoblanadi va asar unga atalgan deyilgan. Umuman asar insonning bu dunyoni tark etganidan so'ng qilgan ayb va gunohlari uchun jazo topishi muqarrarliligi haqidadir. Do'zaxda har bir kasb egalari, oddiy insonlar, folbinlar, firibgarlar, poraxo'rlar, ikkiyuzlamachilar, munofiq kishilar, og'rilar, qitmir maslahatgo'ylar va boshqalarning qilmishlari uchun jazo topishi tasvirlangan.

Vergiliy va Dante aylanib tushgan ikkinchi doiraning qopqasida bandalarning gunohini tayin etib, jazosini ko'rsatuvchi Minos o'tirgan bo'ladi. Bu doirada shaxvatparastlar joylashgan bo'lib, ular daxshatli quyun komida beto'xtov aylanib yuradilar.[2]

Dante bu jazolarning barchasini guvohi bo'ladi va o'z qavmidagilarni ham uchratadi. Chetdan qaraganda, asarda jazo emas uning muqarrarliligiga ko'proq urg'u berilgan. Insonlar shunchaki gunoh qilib ketavermaydilar va uning uchun hech qanday tovon to'lamayman deyishlari noto'g'riligi ochib berilgan. Bundan tashqari har bir toifadagi insonlar uchun har turli jazolar kutib turgani, bu dunyoda qilgan qilmishlari uchun do'zaxda ikki baravar jazo olishlari tasvirlangan. Misol uchun, aynan 28-qo'shiqda insonlar orasiga nizo va nifoq urug'ini sochuvchilarning jazosi, ya'ni ular doira bo'ylab tinmay aylanadilar va bir nuqtaga borganda iblis shamshir bilan ularning boshini yorib yuboradi, yana aylanib kelguncha bu jarohat bitib ketadi va bu qayta-qayta takrorlanaveradi.

Qirg'in qay niyatga bo'lmasin mansub,-
To'qqizinchi qopqa qa'ridagi xol
Ularning baridan ketgaydir o'tib.
Tagi tushib qolgan qo'sh quloq misol,
Mahkumning vujudi yorilgandi qoq –
Labdan to dumg'aza – ochilgan yaqqol.
Butiga osilgan ichak va chavoq
Najas o'tar joyda - xaltacha aro
Yurak ham ko'rinib turardi shundoq.
Menga ko'zi tushgan mahkum bechora
Qo'li bilan ochib ko'kragin tarxin
Dedi: Qara, mening holimga qara!
Bu banda nechog' bad, bir nazar solgin!
Qarshimda yurgan zot benavo, dalli.
Boshi qoq ikkiga bo'lingan horg'in.
Bundagi mahkumlar hayot mahali
Jahonga solgandir nifoq va nizo,





Endi jazo tortar, kelmishdir gali.

Bundan shu anglashiladiki, sen hozir insonlarga bir marta yomonlik qildingmi narigi dunyoda shu yomonliging uchun takror va takror jazolanaverasan. Insonlar o'rtasiga yomonlik urug'ini sochganlar narigi dunyoda eng og'ir jazoga tortilishi tasvirlangan. Gunohkorlarning jazolari qayta takrorlanishi bilan ularning ayblari yuvilib qolmaydi, shu qilgan gunohlariga vaqtida tavba qilgan taqdirida ham bu jazodan omon qolishlari haqiqatdan uzoqdir.

Xulosa. Umumiy xulosa shuki narigi dunyoga sayohat qilgan Dante har ikki olam haqida yetarli xulosaga kelishi, olaming mohiyatini anglashi, g'aflat uyqusidan uyg'onishi kerakligidir. Asar narigi dunyo daxshatlaridan insonlarni ogoh qilishga chaqiradi.

Dantening "Ilohiy komediya" asari insonning ma'naviy kamoloti, qilgan gunohlari uchun javobgarligi va oxiratdagi muqarrar jazosi haqida chuqur falsafiy xulosa beradi. Asarda keltirilgan Do'zax manzaralari, undagi turli toifalardagi gunohkorlarning azoblari hamma qilgan amali uchun albatta javob berishini anglatadi. Dante Vergiliy boshchiligida o'tgan bu safar orqali nafaqat o'z zamonining illatlarini fosh qiladi, balki o'quvchini ham yaxshi-yomonni ajratishga, o'z ruhiy holatini taroziga solishga undaydi.

Umuman olganda, "Ilohiy komediya" insonning ruhiy uyg'onishiga da'vat etadigan, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasini targ'ib qiladigan, har bir kishini o'z vijdoni bilan yuzlashtiradigan ulkan ma'naviy-axloqiy asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov – Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent – 2001.
2. Abdulla Oripov – Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent – 2001.
3. Ilohiy komediyaning qisqacha mazmuni (2016). Bogota Kolumbiya
4. Vikipediya, Bepul ensiklopediya. Ilohiy komediya (2017).

